

YOSHLAR TA'LIM- TARBIYASIDA IMOM BUXORIY HADISLARINING TUTGAN O'RNI

Tog'ayev Nodirjon Ergashevich,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti falsafa doktori (PhD) dots.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom al-Buxoriyning yoshlarni bilim o'rganishiga doir hadisleri tahlil qilingan. Uning tarbiya, ma'naviyat, mililiylik haqidagi qarashlari falsafiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: hadis, ilmiy meros, yoshlar, ma'naviyat, farzand, mustaqillik, falsafa, din, dunyoviylik.

YOUTH EDUCATION THE PLACE OF THE HADITHS OF IMAM BUKHARY

Annotation. In this hadith of Imom al-Bukhariy which is about studying knowlage are analyzed. His national, educational, spiritual consepts are studied philosophically.

Keywords: hadish, scientific heritage, the young, spirituality, children, independence, philosophy, relign, worldlines.

Xalqimizning uzoq o'tmish tarixi shundan dalolat beradiki, insoniyatning ma'naviy kamolatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy ma'naviy-madaniy meros, buyuk qadriyatlar sohibimiz. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz: „Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astranomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi" [1:4-31] – deb ta'kidlaydi.

O'sib kelayotgan yoshlarimizni bilimga chorlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bugun davlatimizning birinchi galdagi vazifalaridan biriga aylangan. Mana shunday dunyoqarash Imom Buxoriy bobomizning ham hayotiy falsafasiga aylangan desak, xato bo'lmaydi. U kishi o'z davrida yoshlarni bilim olishga chorlab, ularni moddiy jihatdan qo'llab turgan ekanlar. Buxoriyshunos olim Ubaydulla Uvatov "U doimo ilm ahllariyu ilm toliblariga, hatto ustozlar (ash-shuyux) va muhaddislarga ham moddiy yordam ko'rsatardi. Tijorat qilganda har safar o'zi ko'rayotgan daromaddan, ya'ni foydasidan besh yuz dirhamni faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflardi. Tolibi ilmlarga ma'lum mablag'lar (maoshlar) ajratib, ularni alohida qiziqishu zavq-shavq bilan Payg'ambar (s.a.v.) ilmlarini (hadisi shariflarini) o'rganishda rag'batlantirardi, ahli ilmga nisbatan g'oyatda ko'p ehson ko'rsatardi" [2:5-22] – deydi.

Yosh avlodni axloqiy etuk shaxs sifatida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini o'stirish, ilm berish, halol mehnat va kasbga o'rgatish jarayonida hadislardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki, axloq-odob, farzandlarni ota-

onalarning oldidagi burchlarini mukammal ado etish zarurligi, hech bir kimsaga ozor bermaslik, solih va qobil bo'lishlari, ta'lim-tarbiya, oilaviy muhitning barqarorligi hamda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish kabi ko'plab ijtimoiy-axloqiy masalalarga hadislarida alohida e'tibor berilganligi bilan ham muhim manba hisoblanadi.

Masalan, Imom Buxoriy hadislarida: "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Hech kim o'z qo'li bilan topgan rizqidan ko'ra lazzatliroq taom emagan. Ollohning payg'ambari Dovud alayhissalom ham o'z qo'llarining mehnati bilan tirikchilik qilganlar" [3:3-9] - deb ta'kidlanadi.

Ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan boy milliy-ma'naviy meros kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishida, Vatanga muhabbat, millatparvarlik, ajdodlarga munosib farzand bo'lish va ularning bunyodkorlik faoliyatini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

„Bugungi kunda jahon miqyosida buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtimom ko'rsatilib, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi barchamizni quvontiradi. Shu o'rinda Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga hurmat sifatida muazzam haykallarning o'rnatilishi har bir vatandoshimiz qalbida cheksiz iftixor tuyg'ularini uyg'otadi" [4:6-63-64].

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya masalasi dolzarb ijtimoiy masalalarni qamrab olar ekan, avvalo har bir ota-ona o'z farzandiga oilada yaxshi tarbiya bermog'i lozim. Chunki xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bor. Shuning uchun farzand tarbiyasida birinchi navbatda erkak kishining roli katta bo'lishini barchamiz yaxshi angalshimiz kerak. Bugungi kunda ko'pchiligimiz bu borada beparvo bo'lib, farzandimizning ta'lim-tarbiyasiga befarq bo'lamiz. Uning kim bilan do'st bo'lib, qanday ta'lim olayotganligidan ko'ra o'zimizning ishdagi faoliyatimizni ustun qo'yamiz. Natijada nazoratsiz qolgan bola o'zini qiziqtirgan turli o'yinlarga berilib ketishi yoki ta'limga bo'lgan intilishining o'rniga o'ziga yot axloqsiz g'oyalarning ta'siriga tushib qolishi mumkin. Imom ibn Qayyum so'z yuritar ekanlar "Ko'pchilik farzandalarining axloqsiz bo'lib, buzilib ketishi otalar tomonidan, ularning beparvoligi sababidan, ularga dindagi farz va sunnatlarni o'rgatmasliklari tufayli yuzaga keladi. Otalar o'z bolalarini yoshlik chog'larida qarovsiz qoldirishgan bo'lsa, ular katta bo'lganlarida o'zlariga ham, otalariga ham manfaat etkazmaydilar" [5:7-36-37] - deb aytadilar.

O'zbek xalqi milliy-ma'naviy merosi o'zining boyligi, hayotiyiligi bilan ham jahon sivilizatsiyasida alohida o'ringa ega. Hozirgi kunda ajdodlarimiz erishgan yutuqlarning umumjahon tomonidan e'tirof etilishi, avvalo yoshlarda o'z xalqiga muhabbat, hurmat tuyg'ularini shakllantiradi, ularda milliy iftixor tuyg'usini yaratadi, o'zligini chuqurroq anglab olishga imkon beradi Bu haqda Birinchi Prezidentimiz: „Kishilik tarixi paydo bo'lganidan buyon, ming yillar davomida har qanday mamlakatning, har qanday millatning, ota-ona bo'lish baxti nasib etgan har qanday insonning eng mo'tabar orzusi, astoydil intilgan asosiy maqsadi – sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, har tomonlama komil insonni voyaga etkazishdan iborat bo'lib kelgan" [6:2-425] - deb ta'kidlaydi.

Bizning donishmand ajdodlarimizning barchasi ilm-ma'rifatni ulug'laganlar, insonni axloqli, tarbiyali bo'lishga, Vatanni sevishga, insonparvar hamda millatparvar bo'lishga undaganlar. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros, ulkan kashfiyotlar inson dunyoqarashi, ayniqsa yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish hamda rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishda milliy-ma'naviy merosimizdan foydalanmog'imiz lozim, chunki ajdodlarimiz merosida ta'lim-tarbiya, axloqqa doir masalalar chuqur ishlab chiqilgan.

Imom Buxoriy ilmiy merosini o'rganish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yoshlarimizga doimiy ravishda tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. U kishining "ibratli pand-nasihatlar va o'g'itlari hozirgi jamiyatimiz ahlini, ayniqsa, yosh avlodni etuk, komil inson qilib, tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Imom Buxoriyning asarlari diniy ilmlar majmuasiga oid bo'lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Masalan, u kishining bosh asari "al-Jomi' as-sahiyh"da tarix, mantiq, fiqh, huquqshunoslik, tabobat va boshqa fanlarga oid ko'plab ma'lumotlarni ham uchratamiz" [7:8-72].

Ajdodlarimizning o'tmishi, milliy va diniy an'analarimiz, ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish, xalqimizning milliy o'zligini anglashi, demokratik, adolatli, huquqiy davlat rivojida fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning yaxlit bir dunyoqarashi shakllanishida nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Tariximiz, madaniyatimiz dinimizga aloqador bir varaq qo'lyozma bo'lsa ham, ularni to'plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug' merosga munosib etib tarbiyalashdan iborat" [8:1-592] –deb ta'kidlab o'tadilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tamizki mamlakatimizning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy salohiyati, iqtisodiy holati, xalqimizning aql-zakovati va irodasi, el-yurtimizning ozod, farovon, baxtli kelajagini yaratuvchi sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashdek vazifani bajarishda imkoniyatlari beqiyosdir. Shunday ekan, bugungi kunda buyuk davlatga munosib barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ma'naviy etuk, jismonan baquvvat, ma'rifatli, yuqori darajali mutaxassis kadr qilib etishtirish ustida faol ish olib borish lozim. Bugungi kunda unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni mehr-oqibatli, sahovatli, Vatanga muhabbat, millatparvarlik hamda kelajakka ishonch bilan qarash ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimizdan avlodlarga qoldirilgan boy milliy-ma'naviy hamda madaniy meros hamda ulkan kashfiyotlar mamlakatimiz yoshlarida ajdodlar ruhiga hurmat, Vatanga muhabbat hamda barkamol avlod ruhida kamol topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. SH.M.Mirziyoyev. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hajihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. T.: „O'zbekiston", 2018, 592-bet.

2. I.A.Karimov. Sog'lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. T.: „O'zbekiston", 2000, 425-bet.

3. Abu Abdulloh Muhammad Ismoil ibn al-Buxoriy. Hadis -2. T.: “Qomuslar bosh tahririyati”. 1997. 9-bet.
4. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: „Ma’naviyat”, 2008, 31-bet.
5. O‘zbekiston buyuk allomalar yurti. – T., “Ma’naviyat”, 2010, 22-bet.
6. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. T.: „O‘zbekiston”, 2010. 63-64-betlar.
7. Islom ma’rifati. – Toshkent, “Toshkent islom universiteti”, 2005, 36-37-betlar.
8. Uvatov U. Hadis ilmining sultoni. Imom Buxoriy xalqaro markazi. 2009, 72-bet.